

“TASDIQLAYMAN”
Sog‘liqni saqlash vazirligi
huzuridagi Jamoatchilik
kengashi raisi

Z. Sidikov

Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi majlisining
BAYONNOMASI

2026-yil 4 -sentabr

3 -son

Toshkent shahri

Raislik qiluvchi

Z. Sidikov – Jamoatchilik kengashi raisi

Ishtirok etuvchilar

Jamoatchilik kengashi a‘zolari, NNTlar
(tibbiyot assotsiatsiyalari va
jamoatchilik vakillari) vakillari,
Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi
mas’ul xodimlari hamda Komplayens va
korrupsiyaga qarshi ichki nazorat
boshqarmasi xodimlari

K U N T A R T I B I:

1. Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida belgilangan ustuvor yo‘nalishlar va chora-tadbirlari to‘g‘risida;
2. Sog‘liqni saqlash vazirligi va uning tizimida korrupsiyaga oid tugallangan jinoyatlar (2025-yil, 2026-yilning 1-yarmi), ularning sabablari va shart-sharoitlari, sohada korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuqori bo‘lgan jarayonlar va munosabatlar;
3. “Korrupsiyasiz soha” loyihasi bo‘yicha yo‘l xarita ijrosi;
4. Tizimdagi korrupsion xavflarni bartaraf etish yuzasidan tashkil etilgan amaliy harakatlar haqida.

(Z. Sidikov, J. Jangizov, F. Sanayev, S. Mamanov, N. Muratova, M. Sattorov, Z. Sidikov)

Birinchi masala yuzasidan – Vazirlik markaziy apparatining Komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat boshqarmasi boshlig‘ining hisoboti tinglandi. Hisobotda sohada korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish, kadrlarni ochiq tanlov asosida ishga olish, rotatsiya qilish, sodir etilgan jinoyatlar, “Korrupsiyasiz soha” loyihasi bo‘yicha yo‘l xarita ijrosi va keyingi bosqichdagi rejalarga e‘tibor qaratildi.

Kengash a‘zolari bu borada vazirlikning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi faoliyati samaradorligini va “Ochiqlik indeksi” ko‘rsatkichlarini yanada yaxshilash yuzasidan o‘z fikrlarini bildirdilar.

Shuningdek, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish kerakligi ta'kidlandi.

Ikkinchi masala yuzasidan – Jinoyat kelib chiqishining sabablari va sharoitlarini aniqlash, huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan tegishli chora-tadbirlar belgilash hamda ularni bartaraf etish choralari ko'rib borish qayd etildi.

Uchinchi masala yuzasidan – sohada inson omili qisqartirilib, jarayonlarni to'liq raqamlashtirish va shaffoflikni oshirish bo'yicha vazifalarni belgilash, Vazirlik tomonidan tegishli tashkilot va muassasalar rahbarlarining axborotini eshitish, yo'l xaritasi bandlarining bajarilish holatini qat'iy nazoratga olish, bu esa vazirlikning ochiqlik va korrupsiyaga qarshi kurashish reytingi ko'rsatkichlari yanada yaxshilanishiga erishilishi bildirildi.

To'rtinchi masala yuzasidan – Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi korrupsion xavflarni bartaraf etish, ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash maqsadida so'nggi yillarda qator amaliy va institutsional harakatlar tashkil etildi. Prezidentning tegishli farmon va qarorlari, xususan, vazirlik tizimini qayta tashkil etish hamda maxsus huquqiy eksperimentlar doirasida sohada korrupsiyaga qarshi keskin kurash choralari ko'rilayotgani va samara berayotgani ta'kidlandi.

Jumladan, Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish va komplayens masalalari bo'yicha vazir o'rinbosari lavozimi joriy etilib, ichki nazorat tizimi tubdan kengaytirildi.

Markaziy apparat, hududiy boshqarmalar va tizim tashkilotlari zamonaviy yondashuv hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatga ega malakali kadrlar bilan to'ldirilmoqda. Nomzodlarni ishga qabul qilishda tekshirish bo'yicha maxsus tizim joriy etildi.

Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat faoliyati raqamlashtirilmoqda. Tizimda inson omilini kamaytirish maqsadida Raqamli komplayens dasturiy kompleksi ishga tushuntirildi. Tizimda sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalangan holda korrupsiyaviy xavflarni barvaqt aniqlash va ularning oldini olish mexanizmlari yo'lga qo'yilmoqda.

"Sirli mijoz" tadbirlari, ayniqsa, tug'uruq muassasalarida homiladorlar va ularning yaqinlaridan noqonuniy pul talab qilinishi hamda g'ayriqonuniy xatti-harakatlarga chek qo'yish uchun maxsus tezkor nazorat tadbirlari tashkil etilmoqda.

Korrupsion holatlar haqida tezkor xabar berish uchun "1203" qisqa raqamli ishonch telefoni, @ssvantikor.bot rasmiy Telegram boti hamda elektron pochta manzillari uzluksiz ishlamoqda. Murojaatchilarning shaxsi va taqdim etilgan ma'lumotlarning maxfiyligi ta'minlanmoqda.

Xodimlarni o'qitish va ularning huquqiy savodxonligini oshirish tartibi belgilanib, 56 ming nafari korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha o'qitildi.

Kontragentlarni (hamkorlarni) tekshirish, manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va tibbiyot xodimlarining odob-axloq kodekslariga rioya etilishini monitoring qilish bo'yicha qat'iy metodologiyalar ishlab chiqilgan.

Olib borilayotgan mazkur tizimli eksperimentlar va "Korrupsiyasiz soha" loyihalari natijasida, sohada qayd etilayotgan korrupsiyaviy jinoyatlar soni yildan-yilga kamayish tendensiyasini ko'rsatmoqda.

Tizimda ijro intizomi tahlil qilindi. Jumladan, o'tgan 6 oyda sog'liqni saqlash sohasidagi huquqbuzarlik va korrupsiyaga oid murojaatlar soni keskin oshgan, xususan, 270 tadan 1 690 taga yoki 6,3 baravarga yetgani muhokama qilindi. Biroq ular sonining o'sishi sohada aholi muammolarining keskin ortib ketganini emas, balki murojaatlarni qabul qilish manbalarining kengayishi, aholining vazirlikka to'g'ridan-to'g'ri va murojaatlarni elektron platformalar orqali yuborish imkoniyati yaratilgani bilan izohlanadi.

Eng asosiysi, korrupsiyaga oid murojaatlarning o'sishi asosan davlat tibbiyot muassasalarida kadrlar bilan ishlash, moliyaviy munosabatlar va bepul tibbiy xizmatlar ko'rsatish jarayonlarida korrupsiya xavfi saqlanib qolayotganini ko'rsatdi.

Ayniqsa, ushbu yo'nalishdagi murojaatlar Qashqadaryoda 24 tadan 155 taga, Andijonda 23 tadan 133 taga, Namanganda 22 tadan 105 taga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida 8 tadan 87 taga ko'paygan.

Eng ko'p murojaat Jalaquduq tumanida 47 ta, Samarqand shahrida 39 ta, Farg'ona shahrida 33 ta, Yunusobod tumanida 32 ta, Yashnobod tumanida 31 ta hamda Olmazor tumanida 30 ta.

Korrupsiyaga oid murojaatlarni ko'rib chiqish jarayonida asosiy kamchilik bu – ariza va shikoyatlarni mazmunan chuqur o'rganish o'rniga, faqat yuzaki javoblar yoki rasmiy hujjatlar bilan cheklanib qolinmoqda, korrupsiya haqida xabar bergan shaxslarning shaxsiy ma'lumotlari sir saqlanishi to'liq ta'minlanmayapti, shuningdek, tekshiruvlarning kechikishi oqibatida dalillar yo'qolmoqda, yashirilmoqda yoki korrupsiyaga sharoit yaratuvchi holatlar saqlanib qolmoqda, korrupsiyada gumon qilinayotgan mansabdor shaxslar o'zlarining xatti-harakatlaridan norozilik xususidagi murojaatlarni yoki ularga bevosita aloqador ishlarni o'rganmoqda, ayrim murojaatlar asossiz ko'rmasdan qoldirilmoqda.

Umuman, qayd etilgan kamchiliklar boshqa hududiy boshqarmalar, tuman (shahar) birlashma (bo'lim)lar, tibbiyot tashkilotlari hamda Vazirlikning respublika tashkilotlari va muassasalariga ham tegishli bo'lib, barcha tashkilotlar va mas'ul xodimlar murojaatlar bilan ishlashni chuqur tahlil va mas'uliyat asosida tashkil etishi shartligi bildirildi.

Shuningdek, mazkur yo'nalishda tashkiliy chora-tadbirlarni kuchaytirish, faoliyatni tanqidiy baholash, murojaatlarning sabablarini bartaraf etish, ichki nazorat va komplayens tizimni takomillashtirish hamda profilaktika ishlarini riskka asoslangan yondashuv asosida tashkil etish, shuningdek, tibbiyot xodimlarining kasbiy saviyasi hamda muomala madaniyatini oshirish bilan tizimli shug'ullanish ishlarini kuchaytirish haqida ko'rsatma berilgan.

Kun tartibidagi masalalar yuzasidan H.Shayxova, M.Sattorov, N.Muratova, Z.Abduraximov va boshqalar o'zlarini qiziqtirgan savol hamda taklif-mulohazalarini bildirdi.

Jamoatchilik kengashi a'zolari, vazirlik rahbariyati hamda Komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat boshqarmasi mas'ullari ishtirokida o'tkazilgan majlis bayonini ko'rib chiqib, bildirilgan fikr-mulohazalar hamda takliflar hamda "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun va sohaga oid qonunchilik hujjatlar ijrosini ta'minlash maqsadida, Jamoatchilik kengashi

QAROR QILADI:

1. Kun tartibidagi masalalar hamda murojaatlar bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, ularni ko'rib chiqishda ro'y berayotgan qonun buzilishi, mas'uliyatsizlik holatlari yuzasidan Komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat boshqarmasi boshlig'i **S.Mamanovning** axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Tizimda shaffoflikni ta'minlash, ayniqsa, bemorlarni navbatga qo'yish, bepul yo'llanma imtiyozli tibbiy xizmatlar va dori vositalari taqsimotida jamoatchilik nazorati yetarli darajada tashkil etilmaganligi ko'rsatib o'tilsin.

2. Komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat boshqarmasiga quyidagi vazifalar tavsiya etilsin:

bemorlarni qabul qilish, imtiyozli davolanish (yo'llanma berish) va pullik xizmatlar ko'rsatish jarayonlarini to'liq raqamlashtirish, inson omilini kamaytirish;

tashkilot va muassasalarning kirish qismida va ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy sahifalarida ko'rsatiladigan bepul (kafolatlangan) hamda pullik tibbiy xizmatlar ro'yxati va narxlari aks etgan maxsus peshlavhalarni yangilab borish.

Aholi bilan qayta aloqa tizimini yanada kuchaytirish maqsadida:

"Ishonch telefonlari" va Jamoatchilik kengashi aloqa kanallari to'g'risidagi ma'lumotlar bemorlar va ularning yaqinlari ko'rinadigan joylarga joylashtirish;

korrupsiyaviy xavf-xatarlar yuqori bo'lgan tashkilot va muassasalarda (masalan: tug'ruqxona, jarrohlik, qabul bo'limi va h.k.) anonim so'rovnomalar o'tkazish;

xodimlarning kasb odobi qoidalariga rioya etishi, shifokorlik qasamyodiga sodiq qolishi hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik muqarrarligi to'g'risida tushuntirish ishlarini yanada kuchaytirish;

sohada "korrupsiyasiz soha" va "murosasiz munosabat" muhitini shakllantirish bo'yicha Jamoatchilik kengashi a'zolari ishtirokida davra suhbatlari va seminarlar tashkil etish.

3. Shu yilning oktabr, noyabr oylarida vazirlikning Klinik audit inspeksiyasi, Ichki audit boshqarmasi hamda Komplayens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat boshqarmalari ishtirokida Jamoatchilik kengashining navbatdagi yig'ilishini tashkil etish belgilansin. Ushbu majlisda vazirlikning ichki audit inspeksiyasi Nizomi muhokama qilinishi lozim. Nizomning dastlabki loyihasi Jamoatchilik kengashi a'zosi N.Muratova bilan hamkorlikda tayyorlash tavsiya etiladi.

4. Kengash a'zolari o'z yo'nalishlaridan kelib chiqib, muntazam ravishda Kengashga takliflar kiritib borsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Jamoatchilik kengashi raisi zimmasida qoldirilsin.

Kengash kotibi



J.Jangirov